

KUTUBXONA VA AXBOROT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJIY VA NOAN'ANAVIY USULLAR TAHLILI

Olimova Mashhura

O'zDSMI "Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14666299>

Annotatsiya: maqolada kutubxona-axborot faoliyatini takomillashtirishda xorijiy va noan'anaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy kutubxonalarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, elektron resurslar bilan ishlashish va kitobxonlarga sifatli xizmatlar ko'rsatishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: kutubxona axborot faoliyati, axborot texnologiyalari, kutubxonalarni raqamlashtirish, xorijiy tajriba.

Kutubxonalar, axborot va bilim resurslarini saqlash, tarqatish va foydalanuvchilarga taqdim etishda muhim ro'l o'ynaydi. Zamonaviy kutubxonalar faqat kitoblar bilan cheklanmaydi, balki axborot texnologiyalari va yangi kommunikatsion vositalarni qo'llab-quvvatlash orqali keng qamrovli xizmatlar taqdim etadi. Shu sababli, kutubxona axborot faoliyatini takomillashtirish uchun yangi, innovatsion va xorijiy tajribalarni o'rganish muhimdir. Axborot jamiyatida kutubxonalar nafaqat bilim manbai, balki zamonaviy axborot markazlari sifatida faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan kutubxona axborot faoliyatini takomillashtirish zarurati yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Kutubxona axborot xizmatlari doimiy ravishda yangilanib boradi. An'anaviy usullarda foydalanuvchilarga bosma adabiyotlar bilan xizmat ko'rsatish, kutubxona kataloglari va kartatekalari orqali qidiruv tizimlari kiradi. Ammo bugungi kunda noan'anaviy usullar, jumladan, elektron kutubxona, raqamli arxivlar va virtual xizmatlar keng qo'llanilmoqda. Masalan: elektron kataloglar va ma'lumotlar bazalari, kutubxona resurslarini qidirish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi. Mobil ilovalar esa, kutubxona xizmatlariga tezkor ulanish imkonini beradi.

Elektron kutubxonalar AQSHning Kongress kutubxonasi va Yevropadagi "Europeana" platformasi raqamli texnologiyalar asosida o'quvchilarga keng ma'lumotlar bazasini taqdim etmoqda. Bu usul nafaqat vaqt va makonni qisqartiradi, balkim bilim olishni osonlashtiradi.

Yevropaning AI texnologiyalarini qo'llash tajribasi axborot olish jarayonini yanada samarali qilmoqda. Shaxsiy fikrimcha, bunday texnologiyalar orqali o'quvchilar uchun individual o'quv dasturlarini yaratish ham mumkin. Axborot tarqatish usullari nafaqat texnologiyaga asoslangan, balki insonning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga oladigan yondashuvlar bilan boyitilishi lozim. Ko'plab xorijiy kutubxonalar, jumladan, AQSh va Yevropa kutubxonalari raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilgan. Milliy kutubxonalar ham raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirishi lozim.

Masalan, elektron kutubxonalar sonini oshirish, ular orqali axborotga kirishni osonlashtirish va xalqaro raqamli platformalar orqali ilmiy-tadqiqot ishlari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Kutubxonalarda turli xil dasturlardan, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli marketingdan foydalanish. Kutubxonalar zamonaviy foydalanuvchilarga yaqinlashish uchun ijtimoiy tarmoqlarni faol ishlatishi kerak. Telegram kanallar, YouTube darsliklar yoki

Instagram sahifalari orqali kitobxonlikni targ'ib qilish kutubxonalar xizmatining yanada ommalashishiga yordam beradi. Shaxsiy fikrimcha, bu nafaqat yoshlar, balki kattalar orasida ham kutubxonaga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Kutubxonalarda kitobxonlikni kitobga jalb qilish maqsadida tadbirlar tashkil qilish kerak. Shu bilan birga, tematik seminarlar, ijodiy uchrashuvlar va madaniy kechalar orqali kitobxonlar sonini oshirish mumkin. Amaliy tajribalar va natijalar O'zbekistonda kutubxonalar faoliyatida sezilarli o'zgarishlar kutilmoqda.

"ZiyoNET" axborot portalining tashkil etilishi orqali minglab foydalanuvchilar uydan chiqmasdan kutubxonadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Buni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Toshkentdagi Prezident kutubxonasi yangi texnologiyalarni kutubxonachilikka tatbiq etishning yaxshi namunasi. Bu model viloyat kutubxonalariga ham tatbiq etilishi lozim. Milliy kutubxonachilik sohasiga AI texnologiyalarni kiritish va xalqaro platformalar bilan hamkorlik qilish. Noan'anaviy yondashuvlarni kengaytirish kerak. Kutubxonalarda tematik klub va loyihalarni yo'lga qo'yish orqali yoshlarni jalb qilish imkoniyati yuqorilaydi.

Davlat tomonidan kutubxonachilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan qo'shimcha dasturlarni joriy etish kerak.

Xulosam shuki, kutubxonalar axborot faoliyatini takomillashtirish nafaqat zamon talabi, balki milliy intellektual salohiyatini oshirish uchun zarurdir. Xorijiy va noan'anaviy usullarni uyg'unlashtirish orqali kutubxonalar nafaqat foydalanuvchilar uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni, ilm-fan madaniyatini rivojlantiruvchi strategik maskanga aylanishi mumkin. Shu ma'noda, kutubxonalarning imkoniyatlarini kengaytirish va foydalanuvchi ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishdagi innovatsion yondashuvlarni izlab topish va joriy etish lozim.

References:

1. O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2021
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PQ-4354-son qarori
3. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
4. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O'ZBEKISTONDA MADANIY-MA'RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
5. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.